

SUN’IY INTELEKTNI JORIY ETISH VA SOHADA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISH JADALLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularni iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga keng joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.

Bugungi kunda dunyoda sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyot, ta’lim, sog’liqni saqlash, xavfsizlik va boshqa muhim yo’nalishlarda asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish, aholiga ko’rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

So’nggi yillarda O‘zbekistonda ham bu sohada tizimli islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimiz sun’iy intellektni tatbiq etish bo’yicha xalqaro reytingda 17 pog’ona yuqoriladi. Hozirda O‘zbekiston 188 davlat ichida 70-o’rinni, Markaziy Osiyo bo’yicha esa birinchi o’rinni egallab turibdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bu natijalar sohada qo’yilgan ilk qadamlar samarasidir, ammo oldinda hali ko’p ish turibdi. Shu maqsadda o’tgan yili 2030-yilgacha mo’ljallangan Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi va Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida maxsus markaz tashkil etildi.

Taqdimotda sohani rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari ko’rib chiqildi.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sun’iy intellekt loyihalarini joriy etish maqsadida 50 million dollar mablag’ ajratilgan. Sog’liqni saqlash, ta’lim, qishloq xo’jaligi, energetika, transport, ekologiya va moliya sohalarini qamrab olgan 86 ta loyiha shakllantirildi. Hozirda sun’iy intellektni qo’llash uchun zarur hisoblash imkoniyatlarini yaratish maqsadida “superkompyuter klasteri”ni tashkil etish ishlari jadal olib borilmoqda.

— Sun’iy intellektni tezroq rivojlantirish uchun doimiy ravishda ilg’or, o’zini oqlagan xorijiy va mahalliy tajribalarni o’rganib borish zarur. Buning uchun sohada samarali faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimiz, xorijiy ekspertlar va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlikni yo’lga qo’yish kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Taqdimotda sun’iy intellekt sohasida zamonaviy hisoblash quvvatlarini o’zimizda yaratish, ma’lumotlar markazlarini qurish va bunga investitsiya kiritmoqchi bo’lgan tadbirkorlar uchun jozibador muhitni ta’minlash muhimligi qayd etildi.

Sun’iy intellektni rivojlantirishda eng muhim omil — malakali kadrlar tayyorlash. Bu ishlarni maktablardan boshlash, informatika o’qituvchilarini qayta tayyorlash, yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Sohada kadrlar tayyorlashni jadallashtirish maqsadida ko’plab dasturlar amalga oshirilmoqda. “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” milliy dasturi doirasida yoshlar uchun aistudy.uz va omp.aistudy.uz platformalari ishga tushirildi, ularda SI bo’yicha 5 ta bepul onlayn o’quv dasturi yo’lga qo’yilgan. Dastur doirasida 2027-yilga qadar 1 million nafar yosh sun’iy intellekt sohasidagi bilim va ko’nikmalarga ega bo’ladi.

Yoshlarning istiqbolli loyihalarini aniqlash va qo’llab-quvvatlash uchun barcha hududlarda Sun’iy intellekt xakatonlari yo’lga qo’yiladi. Shu kunlarda Nukus shahrida sog’liqni saqlash bo’yicha “HealthTech AI Hackathon” musobaqasi muvaffaqiyatli o’tkazildi. Bu tajribani kengaytirib, ta’lim, sud tizimi, suv xo’jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirish yo’nalishlarida ham o’tkazish muhimligi qayd etildi.

Prezidentimiz taqdimot qilingan chora-tadbirlarni qo’llab-quvvatlab, ularni sun’iy intellektni joriy etishni yanada jadallashtirish, ilg’or tajribani amaliyotga tatbiq etish, sohada kadrlar salohiyatini oshirish yo’nalishida yanada takomillashtirish va kengaytirish bo’yicha topshiriqlar berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.

Gabala xalqaro aeroportida O‘zbekiston yetakchisini Ozarbayjon madaniyat vaziri Odil Karimli, Gabala tumani ijro hokimiyati rahbari Sabuhi Abdullayev va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, davlatimiz rahbari 7-oktabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti sammitining rasmiy tadbirlarida ishtirok etadi.

O‘zA

ISMOIL JO‘RABEKOV OILASIGA HAMDARDLIK BILDIRILDI

Atoqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Respublikasi suv xo’jaligi vazirining maslahatchisi Ismoil Jo‘rabekov joriy yil 28-sentabr kuni vafot etgan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’ziyalari xonadonga tashrif buyurdi. Qur’on tilovat qilinib, duo o’qildi. Davlatimiz rahbari marhumning ezgu ishlarini, Vatanimizga xizmatlarini yodga oldi.

Ismoil Jo‘rabekov 1931-yil 12-sentabrda Samarqand shahrida ishchi oilasida tug’ilgan. Mehnat faoliyati davomida suv xo’jaligi sohasida mas’ul lavozimlarda mehnat qilib, respublikamizda irrigatsiya va melioratsiya sohasini rivojlantirishga munosib hissa qo’shdi. 1985-yilda O‘zbekiston Vazirlar Kengashi raisining birinchi o’rinbosari etib tayinlandi.

Mustaqillik yillarida I.Jo‘rabekov O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o’rinbosari, Davlat suv nazorati boshlig’i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi lavozimlarida ham samarali faoliyat olib bordi.

O‘zA

So’nggi yillarda I.Jo‘rabekov mo’tabar yoshda bo’lishiga qaramasdan, suv xo’jaligi vazirining maslahatchisi sifatida xizmat qilib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi.

Davlat va jamoat arbobining xalqimiz va Vatanimiz oldidagi xizmatlari munosib baholanib, u “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan irrigatori” faxriy unvoni hamda davlatimizning bir qator yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan edi.

Davlatimiz rahbari marhumning farzandlari va yaqinlariga hamdardlik bildirib, sabr-toqat tiladi. Ular Prezidentimizga tashrfi va dalda so’zlari uchun minnatdorlik bildirdi.

O‘zA

VATANGA QAYTARISH

INSONPARVARLIK TAMOYILINING MISLSIZ NAMUNASI

Mehrli siyosat

“Davlat — jamiyat — inson”. Davlat va fuqaro o’rtasidagi munosabatlar tartibini anglatuvchi ushbu paradigma yaqin-yaqingacha shunday edi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo’lida “Inson qadri uchun” g’oyasi asosida boshlangan yangilanishlar jarayonida ushbu tamoyil tamoman o’zgardi: “Inson — jamiyat — davlat”. Ya’ni inson qadr-qimmati birinchi o’ringa chiqib, mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning o’zagiga aylandi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy — barcha yo’nalishlarda amalga oshirilayotgan har bir ishda inson manfaati ustuvor vazifa etib belgilandi.

Xo’sh, nima o’zgardi? Avvalo, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi o’laroq, ushbu tamoyil asosida yurtdoshlarimiz xohish-irodasi va fikriga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Referendum yo’li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda O‘zbekistonning “ijtimoiy davlat” maqomi mustahkamlanib, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish ma’naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Shu asosda kambag’allikni qisqartirish, aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash maqsadida zamon talablariga mos kasbga tayyorlash tizimi

“YASHIL IQTISODIYOT”GA BILIMGA TAYANILGANDA OSONROQ ERISHILADI

Elektr energiyasi insoniyat sivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida hayotimizning harakatlantiruvchi quvvat manbaiga aylangan. Shu ma’noda, u beqiyos ahamiyatga ega. Keyingi yillarda aholi sonining ortishi, turmush darajasining yuksalishi va zamonaviy texnologiyalardan tobora ko’proq foydalanish evaziga elektr energiyasiga bo’lgan talab keskin oshib bormoqda. Aynan shunday sharoitda dunyo mamlakatlari oldida turgan asosiy vazifa — ishlab chiqarishda tejamkor texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi manbalardan keng foydalanish hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” g’oyasi strategik ahamiyat kasb eta boshladi.

Sir emas, Markaziy Osiyo mintaqasida tobora kamayib, tanqis bo’layotgani va joylashgan mamlakatlar iqlim o’zgarishidan chang bo’ronlari avj olayotgani buning jiddiy jabr ko’rmoqda. Yaylovlar aniq misollari. Shu nuqtayi nazardan, qurib borayotgani, suv resurslarining O‘zbekiston mintaqada birinchilardan

“YASHIL IQTISODIYOT”GA BILIMGA TAYANILGANDA OSONROQ ERISHILADI

respublikamizda muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg’i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko’p degani. Iqtisodiyot uchun mislsiz ahamiyatga molik bu jihatlar e’tiborga olinib, mamlakatimizda “yashil o’sish” tamoyillari qabul qilindi. Bu g’oya nafaqat barqaror taraqqiyotning asosiy ustuni, balki iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash va yangi imkoniyatlar eshigini ochishda ham hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo’ldi.

Davomi 4-betda

O‘ZBEKISTON – TDT: BARQAROR RIVOJLANISH VA TARAQQIYOT YO‘LIDAGI HAMKORLIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti tadbirlarida ishtirok etish uchun Gabala shahriga tashrif buyurdi.



Joylashuvi, tarixan o’zaro yaqinligi va resurslariga ko’ra, taraqqiyotning yangi bosqichida o’ta muhim hamkorlik maydoni sifatida Turkiy davlatlar tashkiloti nufuzi kun sayin ortib bormoqda. Bir vaqtning o’zida Turkiy davlatlar tashkiloti unga a’zo davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning ham madaniy jihatdan yaqinlashuvida muhim ko’priq vazifasini o’tamoqda.

Binobarin, tashkilotning o’zaro teng huquqlilik va manfaatdorlik, ichki ishlarga aralashmaslik va mustaqillik, mamlakatlar suverenitetini hurmat qilish kabi o’ta muhim

omillarni o’zida aks ettirishi keng e’tirof etilyapti.

Turkiy davlatlar tashkilotiga beshta davlat — Ozarbayjon, Qozog’iston, Qirg’iziston, Turkiya va O‘zbekiston a’zo hisoblanadi. Vengriya, Turkmaniston va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ushbu tuzilmada kuzatuvchi maqomiga ega.

Davomi 2-betda

TA’LIM GRANTLARINI QAYTA TAQSIMLASH TALABALAR O’RTASIDA TENGLIKNI TA’MINLAYDI

Bugunning gapi



5



2025-yil 7-oktabr, 205-son

NIGOH

YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON – TDT: BARQAROR RIVOJLANISH VA TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

Turkiy davlatlar tashkilotining amaldagi nomi O'zbekiston Prezidenti taklifi bilan 2021-yil 12-noyabrda tatbiq etilgan. Bundan avval esa tuzilma Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi nomi bilan yuritilgan.

Tashkilotning asosiy maqsadi qardosh davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va ko'p qirrali aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, energetika, transport, turizm va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat.

Ushbu maqsadni ilgari surishning konseptual asosi 2021-yilning noyabr oyida Istanbul shahrida davlat rahbarlarining 8-sammiti yakunlari bo'yicha qabul qilingan "Turkiy nigoh — 2040" dasturidir.

2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilgan O'zbekiston uchun ushbu tuzilmada ishtirok etish nafaqat iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlash, balki turkiy dunyoning umumiy madaniy o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

2022-2023-yillarda O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga raislik qildi. Raislik 2022-yilning noyabr oyida "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" shiori ostida tashkil etilgan Samarqand sammiti bilan boshlandi.

O'zbekiston raisligi davrida 100 dan ortiq tadbir o'tkazildi, amaliy hamkorlik uchun qator yangi platformalar yaratildi. Qayd etish kerakki, O'zbekiston o'z raisligi davrida ochiqlik, inkluzivlikka asoslangan hamda turli mintaqalar va sivilizatsiyalarni o'z ichiga oluvchi hamkorlikning xilma-xil va moslashuvchan shakllariga intildi.

Samarqand sammiti yakunlari bo'yicha Turkiy davlatlar tashkilotining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilinishi muhim voqea sifatida e'tirof etildi. Ushbu hujjat turkiy mamlakatlarning

"Turkiy dunyo nigohi — 2040" konseptual hujjatini amalga oshirish bo'yicha birinchi "yo'l xaritasi" bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston mazkur tuzilmaga a'zo bo'lganidan buyon o'tkazilayotgan sammitlarda faol qatnashmoqda. Xususan, mamlakatimiz yetakchisi Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 2024-yil 6-noyabr kuni Bishkek'dagi navbatdagi va 2025-yil 21-mayda Budapesht shahrida bo'lib o'tgan norasmiy majlislarida ishtirok etdi.

Mazkur sammitlarda tashkilot doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikning holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy sheriklikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari TDTning Budapeshtda bo'lib o'tgan norasmiy sammitidagi nutqida jahonda geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o'zgarishi oqibatlari kuchayib borayotgan bugungi murakkab vaziyat shiddat bilan o'zgarib borayotganini qayd etdi.

O'zbekiston Prezidenti dolzarb xalqaro muammolarni hal etishda, birinchi navbatda, xalqaro huquq normalari va BMT nizomiga tayangan holda tashkilot davlatlarining umumiy yondashuv va pozitsiyalarini mustahkamlash muhimligini ta'kidladi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga to'xtalar ekan, O'zbekiston yetakchisi bu borada ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjudligini ko'rsatib o'tdi va qator yangi takliflar bildirdi.

Siyosiy jihatdan O'zbekiston tashabbusi bilan Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi shartnoma imzolaniishi dolzarb ahamiyatga ega ekan ta'kidlandi. Ushbu hujjat xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko'p qirrali hamkorlikning uzoq muddatli huquqiy bazasini mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

"O'tgan yili "Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik hamda qardoshlik to'g'risida"gi bitimni ishlab



chiqish taklifini ilgari surgan edik. Bugungi kunda ushbu hujjatning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Hech shubhasiz, mazkur bitim xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko'p qirrali hamkorligimizning uzoq muddatli huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu hujjatni Boku sammitida imzolashni taklif qilaman", dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston Prezidenti 2019-yildan shu kunga qadar o'tkazilgan sammitlarida TDT doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 98 ta amaliy tashabbusni ilgari surdi. Bugungi kunga qadar 70 ga yaqin tashabbus bajarildi va 30 ga yaqini amalga oshirilish bosqichida.

O'zbekiston uchun bu tashkilotdagi asosiy ustuvor yo'nalish iqtisodiyot ekanini ta'kidlash muhim. Hozirgi kunda eksport hajmini oshirish, sarmoya jalb etish, ish o'rinlari yaratish, ishsizlik muammolarini hal etish, kambag'allikka qarshi kurashish O'zbekiston uchun asosiy muammolar sirasidandir. Bularning bari jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvimizga tayanadi, tabiiyki, bu formatdagi hamkorlik

yanada integratsiyalashuv va ishlab chiqarish komponentlarini tartibga solish borasida yordam berishi mumkin.

Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolari bo'lgan 5 davlatning umumiy maydoni 4 244 026 kvadratk teng. Ushbu davlatlar hududida istiqomat qilayotgan jami aholi soni esa 170 milliondan ziyod. Bu ulkan imkoniyat va bozor demakdir. Mazkur jihatlar va shu kunga qadar erishilgan kelishuvlarga ko'ra, tashkilotni ro'yobga chiqarilmagan ulkan imkoniyatlar va birlashtiruvchi salohiyatga ega bo'lgan mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmi deb biluvchi O'zbekistonning a'zo mamlakatlar bilan o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari yil sayin oshib bormoqda.

Bugungi kunda TDT davlatlari birgalikda Xitoy va Rossiyadan keyin mamlakatning uchinchi eng muhim tashqi savdo hamkori hisoblanadi. 2024-yilda o'zaro savdo hajmi 10 milliard dollarga yaqinlashdi, bu esa O'zbekiston umumiy tashqi savdo aylanmasining 15 foizini tashkil qiladi.

Ayniqsa, TDT doirasida birinchi savdo hamkor — Qozog'iston va tashkilot doirasida

Nuqtayi nazar

Buyuk ajdodimiz Bilga Xoqon 711-yilda bitiktoshga o'yib yozdirgan "Ey turkiy elim, sen o'zingni angla, o'zligingga qayt, shunda yuksalasan!" degan jumlarlar hozir ham dolzarb va ahamiyatli. Asrlar osha yetib kelgan bu so'zlar butun turkiy elatlar uchun milliy o'zlik va milliy g'ururning shiori timsolidir. O'z o'rnida, bu hikmat turkiy dunyo ahliga qaratib aytilgan zamon haqiqatini anglatadi. Bugungi kunda shu haqiqat ortidan turkiy dunyo jipsligini mustahkamlash yo'lida dadil qadam tashlayotgan O'zbekiston ko'zlagan maqsadlariga yaqinlashib, yangi marralarga erishib bormoqda.



Fazliddin MO'MINOV,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi bo'lim boshlig'i

Yurtimizning Turkiy davlatlar tashkiloti bilan faol aloqalari qulay iqtisodiy va siyosiy hamkorlik maydoni bo'libgina qolmay, umumiy tarix, til va madaniy merosga asoslangan ulkan ilmiy-ta'limiy hamjamiyatga aylanmoqda. Aytish kerakki, tashkilotga a'zo va kuzatuvchi davlatlar — O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkmaniston va Vengriya kelajak avlodni tarbiyalash va ilmiy salohiyatni oshirish orqali turkiy dunyoning mustahkam birligi uchun poydevor qo'yarmoqda.

Bir zamin, bir til va ilm kelajagi

Moziy guvoh, turkiy xalqlar yashab kelgan mintaqalar ming yillar davomida Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasida transport hamda savdo ko'prigi vazifasini bajargan. Endi esa bu ko'priklr ilm-fan va innovatsiyalar rivojiga xizmat qilmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti bilan O'zbekiston ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlik bir necha asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi va so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Bu hamkorlikning asosiy maqsadi turkiy dunyoning yagona ta'lim va ilm-fan makonini yaratish hamda kadrlar mobilligini oshirishdir. Umuman olganda, tashkilot bilan hamkorlik O'zbekistonning Uchinchi Renessans g'oyasini ilgari surishida, ya'ni ilm-fan va ta'lim orqali taraqqiyotga erishishda muhim o'rin tutadi. Tashkilot

doirasidagi ta'lim va fan dasturlarining muhim vazifasi esa a'zo davlatlar ta'lim tizimini o'zaro yaqinlashtirish, ilg'or tajribalarni almashish va xalqaro raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Bu jarayon bir necha muhim yo'nalishni qamrab oladi.

Umumiy o'quv standartlari. A'zo davlatlarning maktab va oliy ta'lim muassasalari uchun tarix, adabiyot va geografiya fanlari bo'yicha umumiy yondashuvlarga ega darsliklar va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqishga e'tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarga umumiy turkiy ildizlarni anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limdagi mobillik. "Orxun" talabalar almashinuv dasturi TDT mamlakatlari talabalari va o'qituvchilari uchun akademik mobillikni ta'minlaydi. Bu dastur talabalarga turkiy dunyoning boshqa mamlakatlarida tahsil olish, madaniyat va tilni chuqurroq o'rganish imkonini beradi, bu esa kadrlar tayyorlashdagi integratsiyani kuchaytiradi.

Universitetlar uyushmasi. Tashkilot doirasidagi universitetlar uyushmasi (TURKUNI) ilmiy tadqiqot loyihalarini birgalikda amalga oshirish, qo'shma ilmiy konferensiyalar o'tkazish va diplomlarni o'zaro tan olish jarayonlarini soddalashtirishda yetakchilik qilmoqda. Zamonaviy dunyodagi murakkab global chaqiriqlar (iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, pandemiyalar) tashkilot mamlakatlaridan ilmiy sohada chuqur

integratsiyani talab qiladi. Bu borada esa tashkilot bir necha yo'nalishni faollashtirmoqda.

Qo'shma ilmiy markazlar. Turkiy davlatlarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalar va qishloq xo'jaligi sohalaridagi ilmiy salohiyatini birlashtirish maqsadida texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilmoqda.

Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash. Turkiy dunyoning yosh olimlari va tadqiqotchilari uchun grantlar va stipendiyaalar ajratilmoqda. Bu, ayniqsa, muhandislik, axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kabi ustuvor yo'nalishlarda muhimdir.

Mamlakatimizning tashkilotdagi ta'lim va fan sohalaridagi faoliyati mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston tomoni zamonaviy ta'lim metodlarini boshqa davlatlar bilan o'rtoqlashish va o'rganishga tayyorligi, turkiy tarix, adabiyot hamda madaniyatni o'rganish bo'yicha qo'shma tadqiqot loyihalarini faollashtirishga harakat qilayotgani hamda turkiy tilli davlatlarning raqamli ta'lim platformalarini o'zaro integratsiya qilish tashabbusi bilan chiqayotganligi, albatta, mintaqaviy manfaatlarini ifodalaydi.

yig'ilishini keltirish mumkin. Ushbu xalqaro tadbirda tashkilotga a'zo davlatlarning 50 ga yaqin oliy ta'lim muassasasi vakillari ishtirok etib, ta'limni rivojlantirish va a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalarini muhokama qildi. Jumladan, Turkiy tilli universitetlar ittifoqining amaldagi raisligi tartiblari, 2023/2024-yillarga mo'ljallangan "yo'l xaritasi"ning tahlili kabi prinsipial ahamiyatga ega ko'plab masalalar ko'rib chiqildi. TDT doirasidagi umumiy sa'y-harakatlar bilan birga, O'zbekistonning a'zo davlatlar — Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, shuningdek, kuzatuvchi maqomidagi Vengriya bilan alohida ikki tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishi ham integratsiya jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Turkiya: muhandislik va innovatsiyadagi yetakchi hamkor

Turkiya bilan oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik 2018-yil 30-aprelda imzolangan protokol asosida strategik darajada rivojlanmoqda. Bugungi kunda yurtimiz

o'rganmoqda. Amaliy hamkorlik doirasida O'zbekistonda Turkiya iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkentdagi filiali va Buxoro davlat tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan Sog'liq bilimleri universitetining Turkiya tibbiyot fakulteti samarali faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Turkiyaning "Yildiz" texnika universiteti konsepsiyasi asosida Toshkent shahrida Innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnopark tashkil etilishi ham fan va sanoat integratsiyasini ta'minlashdagi muhim qadamdir.

Qozog'iston: o'zaro filiallar va akademik mobillik

Tashkilot doirasida Qozog'iston bilan hamkorlik 2022-yil 22-dekabrda imzolangan hukumatlararo bitim bilan mustahkamlanib, hozir ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 280 dan ortiq hamkorlik bitimi amal qilmoqda. Eng muhim amaliy natijalardan biri oliy darajadagi kelishuvga muvofiq, partiet asosda OTMLar filiallarini o'zaro ochishdir. Xususan, Chirchiq shahrida Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti filiali hamda Olmaota shahrida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti filiali tashkil etilib, ularda 2024/2025-o'quv yilidan o'quv jarayoni boshlandi. Bu, shubhasiz, mintaqadagi akademik integratsiyaning yuksak namunasidir. Bundan tashqari, yurtimizning 6 ta oliygohida ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar uchun kadrlar tayyorlanmoqda va hozir O'zbekiston bilan Qozog'iston OTMLari o'rtasida 4 ta qo'shma ta'lim dasturi doirasida 188 talaba o'qimoqda. Ilm-fan sohasida ham Olmaota menejment universiteti "AlmaU" bilan hamkorlikda "Innovatsion menejment" o'quv kursi tashkil etilib, vazirlik xodimlarining malakasi oshirilmoqda. Shuningdek, suv muammolarini tadqiq qiluvchi qo'shma ilmiy loyihalarga grant uchun tanlovlar e'lon qilishga kelishib olindi.

Qirg'iziston: rektorlar forumlari orqali yaqinlashuv

Qirg'iziston bilan hamkorlikning asosiy mexanizmlari rektorlar forumlari

Shuningdek, bu kompaniyalarning ulushi mamlakatdagi xorijiy kapital ishtirokidagi barcha korxonalarining taxminan 20 foizini tashkil etmoqda.

Transport sohasidagi hamkorlikka ham alohida urg'u berilyapti. Ahamiyatlisi, turkiy davlatlar jahon iqtisodiyotida o'zining tranzit barqaror o'sishini namoyish etmoqda. O'rta yo'lak orqali yuk tashish hajmi 2024-yilda 4,5 million tonnani tashkil etib, 2020-yildagidan qariyb 6 barobar oshgani buning yaqqol tasdiq'idir. Bunday dinamika boshqa infratuzilma loyihalari, jumladan, "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'lining strategik zarurati ko'rsatadi.

Mazkur tuzilma mamlakatlari, shuningdek, Kavkaz va Markaziy Osiyoda yangi rivojlanayotgan transport hamda energetika yo'laklari tarmog'i bo'yab ishonchli xavfsizlik va hamkorlik kamarlarini ta'minlashga intilmoqda. Bu nafaqat a'zo davlatlar o'rtasida savdo aloqalarini kengaytirish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi, balki tashkilotning iqtisodiy mustaqilligi va farovonligiga erishishga xizmat qiladi.

O'zbekiston madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash va ommalashtirish yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Ta'lim sohasida O'zbekiston talabalar va tadqiqotchilar almashinuv dasturlarida faol bo'lib, turkiy mamlakatlar universitetlari va ilmiy markazlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilyapti. Ta'lim sohasidagi hamkorlik, jumladan, qo'shma ta'lim dasturlari va tajriba almashish uchun akademik platformalar yaratish izchil qo'llab-quvvatlanayotir. O'zbekiston tashabbuslarining muhim jihati ham energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi loyihalarni ishlab chiqishdir.

Xulosa o'rmda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Prezidentining Turkiy davlatlar tashkilotining Ozarbayjonda o'tayotgan navbatdagi sammitida ishtirok turkiy dunyo taraqqiyotiga xizmat qiladigan dolzarb tashabbuslarni ilgari surish hamda mintaqalarimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ladi. Shuningdek, ushbu tashrif turkiy makonda birdamlikni mustahkamlash va xalqlarimiz farovonligini ta'minlashga qaratilgan samarali sa'y-harakatlarga turtki beradi.

"Dunyo" AA

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI FAN VA O'QUV DASTURLARI — MUSTAHKAM ALOQA POYDEVORI

orqali mustahkamlanmoqda. Ikki davlat universitetlari rektorlarining 2023-yilda O'sh shahrida va 2024-yilda Samarqandda o'tkazilgan birinchi va ikkinchi forumlari yakunida 58 dan ortiq memorandum va hamkorlik shartnomasi imzolandi, bu esa universitetlararo aloqalarni sezilarli darajada faollashtirdi. Bundan tashqari, O'sh davlat universitetida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining O'zbek tili va madaniyati markazi ochilgan bo'lib, almashinuv dasturlari doirasida Qirg'iziston oliy o'quv yurtlaridan 72 mutaxassis oliyog'larimiz o'quv jarayoniga jalb etilgan.

Vengriya: Yevropa bilan ilmiy ko'prikl

Vengriya bilan hamkorlik tajribasi ham fan va ta'limdagi aloqalarni diversifikatsiya qilish nuqtayi nazaridan muhimdir. Hamkorlikning huquqiy asosi 2017-yildagi hukumatlararo bitim va 2024-yil 7-maydagi "Stipendium Hungaricum" dasturi doirasidagi memorandum bilan mustahkamlangan. Vengriya hukumatining yillik 170 tagacha ta'lim granti ("Stipendium Hungaricum") O'zbekiston yoshlarining xalqaro ta'lim olishiga imkon bermoqda. Shuningdek, umumiy fondi 2 million dollar bo'lgan O'zbekiston — Vengriya qo'shma ilmiy loyihalar tanlovi o'tkazilishi fan sohasidagi hamkorlikning amaliy natijasini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Vengriya qishloq xo'jaligi va tabiiy fanlar universiteti (MATE) bilan Toshkent davlat agrar universiteti o'rtasida "Oziq-ovqat xavfsizligi" magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi mavjud. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti va unga a'zo davlatlar bilan fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi hamkorligi turkiy dunyoning umumiy iqtisodiy, intellektual va texnologik taraqqiyotiga xizmat qiladi. Zero, turkiy dunyo birligiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' mutfakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'z satrlarida: *"Turk nazmda chu men tortib qalam, Ayladim ul mamlakatni yakkalam,"* deya hatto qalam bilan bo'lsa ham turkiy ellarni birlashtirishga da'vatkor bo'lgani bejiz emas.



Boshlanishi 1-betda

Odamlarni eshitish, dardiga quloq tutish, muammolarini hal qilish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan avvalgi “davlat — jamiyat — inson” tamoyili amalda bo‘lgan davrdagi stereotiplar tamoman o‘zgarib, inson qadri tom ma’noda ulug‘lanayotgani hisobiga jamiyatimizda “Mehrli siyosat” tushunchasi paydo bo‘ldi va ayni paytda jamiyat hayotiga tobora chuqur singib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonning bu siyosati 38 million nufusi yurtdoshlarimiz farovonligini oshirish, bugungi yashayotgan kunidan roziligiga erishish, ayniqsa, qiyin vaziyatga tushib qolganlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda katta samara berayotgani barobarida, dunyoning to‘rt burchagida siyosiy vaziyat tarang bo‘lib turgan, ayrim mintaqalar urush o‘chog‘iga aylangan ayni tahlilali zamonda insonparvarlik siyosatining oliy namunasi sifatida xalqaro e’tibor va e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

Xususan, 2019-2021-yillarda “Mehr” insonparvarlik operatsiyalari doirasida mamlakatimizning 531 fuqarosi Yaqin Sharqdagi harbiy mojaroli hududlardan O‘zbekistonga qaytarildi. Aynan urush o‘choqlaridan olib kelingan ushbu yurtdoshlarimiz shunchaki og‘ir holatdan olib chiqilmadi, balki ularga yillar davomida tibbiy-psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy jihatdan kerakli yordam berildi.

To‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, doimiy shifokor nazorati yo‘lga qo‘yildi. Bolalar bog‘cha va maktablarga joylashtirilgan bo‘lsa, ayollar kasbiy ta’limda tikuvchilik, oshpazlik, kompyuter savdonligi bo‘yicha tegishli malakaga ega bo‘ldi va shu asosda ishga joylashtirildi. Uy-joy bilan ta’minlanib, zarur hollarda nafaqalar tayinlandi. Bir so‘z bilan aytganda, bu insonlar jamiyatga to‘liq integratsiya qilindi.

Albatta, ushbu sa’y-harakatlar xalqaro tashki-lotlar tomonidan yuqori baholandi. Xususan, BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 2021-yilda o‘tkazilgan sessiyasida O‘zbekistonning o‘z fuqarolarini qurolli mojarolar hududidan qaytarish dasturi va sohadagi ijobiy ishlari hozirgacha fuqarolari Suriya va Iroq singari hududlarda qochqin maqomida bo‘lgan boshqa davlatlar uchun namuna sifatida xizmat qilishi mumkinligi e’tirof etilgan edi.

BMTning maxsus ma’ruzachisi Fionnuala Ni Aolain ham 2021-yil noyabr-dekabr oyilarida O‘zbekistonga safari yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan matbuot anjumanida bu fikrga qo‘shilib, yuzlab ayol va bolalarni jang maydonidan olib chiqish va integratsiya qilish bo‘yicha O‘zbekistonda bajarilgan “Mehr” amaliyotiga yuqori baho bergandi. Zero, mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib ushbu gumanistik loyihani tashkil etdi.

Yoki yurtimizga olib kelingan falastinlik mehmonlarni olaylik. O‘tgan yili falastinlik 100 ayol va bola reabilitatsiya uchun O‘zbekistonga olib kelingan edi. Shu davrda ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatilib, sog‘lomlashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratildi.

Prezidentimizning shu yil 14-avgust-dagi “O‘zbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat g‘amxo‘rligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida ko‘mak berish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan mehmonlarning ijtimoiylashuvini ta’minlash, jamiyatga



VATANGA QAYTARISH

INSONPARVARLIK TAMOYILINING MISLSIZ NAMUNASI

integratsiya qilish ishlarini jadallashtirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, sog‘lig‘ini yanada mustahkamlash, bandligini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur yo‘nalishdagi xayrli ishlar xalqimizning bag‘rikenglik, ezigulik, insonparvarlik kabi milliy qadriyatleri ko‘zgusi sifatida keng jamoatchilik, xalqaro hamjamiyat tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Mehrli siyosat shular bilan chegaralanib qolayotgani yo‘q, albatta. To‘g‘ri, u ma’lum yo‘nalish yoki o‘lchov sifatida ommalashmayapti. Bu — inson qadri ustuvor har joyda, har bir amalda yurtdoshlarimizning islohotlardan roziligi evaziga kengayib borayotgani quvonarli. Masalan, mazkur jihat tashqi migratsiya bilan bog‘liq holatlarda ham yaqqol ko‘rinadi.

Bir kuni ota o‘g‘lining yelkasiga qo‘lini qo‘yib, “Kim zo‘r?” deb so‘radi. O‘g‘il “Men zo‘r”, deb javob berdi. Boshqa javobni kutgan ota savolini ikki-uch bor takrorladi. Ammo o‘g‘ilning javobi o‘zgarmadi. Shunda ota xomush tortib, boshini xam qilib, ortiga burilib yurdi. O‘g‘ildan bir necha qadam uzoqlashgach, yana “Kim zo‘r?” deb so‘radi. O‘g‘il esa “Siz zo‘r”, deb javob berdi. Ota taajjublanib o‘g‘ilning nega javobini o‘zgartirgani bilan qiziqdi. O‘g‘il “Qo‘lingiz yelkamda turganida mendan zo‘r inson bo‘lmaydi”, deya javob berdi.

Ha, dunyoda otadan g‘amxo‘r, onadan mehribon inson yo‘q. Shuning uchun ham ko‘pincha yurt otaga, xalq esa onaga qiyoslanadi. Chunki qayerda, qay ahvolda bo‘lmasin, davlat o‘z fuqarosining yelkasidan tutadi, xalqi qo‘llab-quvvatlaydi.

2019-2021-yillarda
“Mehr” insonparvarlik
operatsiyalari doirasida
mamlakatimizning 531 fuqarosi
Yaqin Sharqdagi harbiy mojaroli
hududlardan O‘zbekistonga qaytarildi.
Aynan urush o‘choqlaridan olib kelingan
ushbu yurtdoshlarimiz shunchaki og‘ir
holatdan olib chiqilmadi, balki ularga
yillar davomida tibbiy-psixologik,
ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-
ma’rifiy jihatdan
kerakli yordam
berildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, “Vatanga qaytarish” insonparvarlik loyihasi doirasida xorijda qiyin vaziyatlarda qolgan 621 yurtdoshimiz O‘zbekistonga qaytarilgan. Vatandoshlarimiz Rossiya, Turkiya, AQSH, Saudiya Arabistoni, Yaponiya kabi mamlakatlardan yurtimizga bepul olib kelingan.

Xalqaro odam savdosiga qarshi kurash kuni munosabati bilan 30-iyuldan boshlangan ushbu aksiya doirasida Vatanga olib kelinganlar va ularning oilalaridagi baxtiyorlik, xursandlikni tasavvur qilib, ochig‘i, yangi O‘zbekistonimizning insonparvar siyosatidan faxrlandim. Repatriatsiya qilinganlarning 326 nafari ayollar, 189 nafari voyaga yetmaganligi mehrli siyosat ahamiyatini yanada o‘rtiradi.

Vatanga qaytarilgan yurtdoshlarimizdan biri rafiqasining farzandli bo‘lgani va sog‘lig‘i yomonlashib, og‘ir ahvolga tushib qolganini aytadi. Ularga bepul chipta



taqdim etilib, shifokorlar nazoratida O‘zbekistonga sog‘-omon olib kelingan.

Musofirlik azobini tolgan hamyurtimiz so‘zlarini eshitib, “Ha, chet elda yashashning ham o‘zi bo‘lmaydi”, deya xayoldan o‘tkazdim. U yerda betob bo‘lish esa dard ustiga chipqon. Sendan hol so‘rab eshigingini taqillatadigan qo‘shning, millatdoshing yo‘q. Joningga ora kiruvchi ota-onang, do‘stu birodaring, og‘a-ining minglab kilometr olisda. Qaysi davlatda ishing bo‘lmasa — ish, puling bo‘lmasa — moddiy yordam beradigan, betob bo‘lsang — dori-darmon, oziq-ovqat, meva-cheva bilan holingdan xabar oladigan mahalla faollari bor?!

Ularning begona yurtlarga qanday borib qolgani bilan qiziqdim. Aksariyati odamlarning “bu yerda yashash yaxshi, pul topish oson”, degan havoyi gaplariga ishonib, tavakkal qilib yo‘lga chiqqan. Ko‘pi chet elda qonuniy ishlash yo‘l-vo‘rig‘ini yaxshi bilmay, firibgarlarning yolg‘on va‘dasiga aldangan, odam savdosi qurbonlari ekan. Ular orasida qarindoshi, do‘stining “tayyor ish bor, sen kelaver” degan so‘ziga ishonib, norasmiy yo‘llar bilan xorijga ishlashga yo‘l olgan, ammo qarindoshi yordam bera olmaganlar ham talaygina.

Mana shular haqida o‘ylar ekanman, bugun migratsiya tizimidagi qulayliklar o‘z o‘rni va vaqtida bo‘lganiga ishonch hosil qilaman. Darhaqiqat, keyingi yillarda sohada tub islohotlar amalga oshirilib, tizim faoliyati yanada shaffof va jadal ko‘rinish oldi. Bunga Prezidentimizning o‘tgan yili 17-oktabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hujjatga muvofiq, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi tashkil etildi. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi agentlikka o‘tkazilib, uning negizida Migratsiya jamg‘armasi ochildi.

Bugun “Xorijda ishlayman” degan kishiga davlatning o‘zi kerakli shart-sharoit yaratib bermoqda. U yerga borgan yurtdoshlarimizning “mardikor” bo‘lib emas, biror-bir sohaning yetuk mutaxassisi sifatida ishlashiga e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda vatandoshlarimizning til o‘rganishi, biror kasb to‘garigiga qatnashib,

yaxshi mutaxassis bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash uchun kompensatsiya, imtiyozli mikroreditlar ajratilmoqda. Shuningdek, mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish, ayniqsa, xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimizni Yevropaning rivojlangan davlatlariga yuborishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 19-22-may kunlari Vengriya va Sloveniya Respublikalariga rasmiy tashrifida mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Shu yil 9-iyunda Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoning O‘zbekistonga tashrifida mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilib, Slovakiya tomoni ushbu sohada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor ekanini ta’kidladi. E’tiborli jihati, bu borada turli manfaatli kelishuvlarga erishildi.

Ilgari xorijiy mamlakatlarga ishlash uchun ketgan vatandoshlarimizga nisbatan salbiy qarash bor edi. Ular sabrsiz, shukronalik nimaligini bilmaydigan insonlar sifatida qilingan jamoa tajribasini olib kirishi rad etib bo‘lmaydigan fakt. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi yirik, 38 millionli nufusga ega mamlakat uchun inson kapitaliga investitsiya kiritish davlat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi. Bu borada Xitoy, Hindiston, Meksika kabi davlatlar tajribasidan foydalanilmoqda.

Sababi, bugungi global dunyoda inson kapitali eksportiga davlat iqtisodiyoti barqarorligi, kelgusi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan tarmoqlarga sifatida qaralmoqda. Xorijiy tajriba, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda ishlash kelgan kadrlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tarmoqlarga yangi “qon”, oddiy qilib aytganda, o‘sha yurt, o‘zi mehnat qilgan jamoa tajribasini olib kirishi rad etib bo‘lmaydigan fakt. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi yirik, 38 millionli nufusga ega mamlakat uchun inson kapitaliga investitsiya kiritish davlat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi. Bu borada Xitoy, Hindiston, Meksika kabi davlatlar tajribasidan foydalanilmoqda.

Mehnat migratsiyasi tizimini shakllantirishda asosiy urg‘u fuqarolarni chet elga tartibli va xavfsiz jo‘natishga qaratilmoqda. Shu bois, mas’ul tashkilotlar tomonidan yurtdoshlarimizga chet elga borishdan oldin tayyorlov kurslari tashkil etilyapti. Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yiligidagi “Ta’lim + ish” tamoyili asosida Germaniyaning 4 ta, Yaponiyaning 3 ta, Bolgariyaning 1 ta xalqaro o‘quv markazi yuritimidagi 9 ta hududda filialini ochdi hamda 6 ta kasb va xorijiy til bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Xalqaro hamkorlar bilan Toshkent viloyatida “Payvandchilar maktabi” (Estoniya), Samarqandda “Kara haydovchilar maktabi” (Latviya), Surxondaryo viloyatida “Yuk avtomobili haydovchilari maktabi”ni (Yaponiya) tashkil qilishga kelishildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Xorijga ish — mahalladan” tamoyili

asosida eng quyi bo‘g‘indan chet davlatlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishga borish imkonini yaratilmoqda. Bu tizimda “Onlayn mahalla” platformasi orqali inson omilisiz ariza yuborish imkonini yaratilgani yanada katta qulaylik yaratmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, yurtdoshlarimiz orasida norasmiy yo‘llar bilan xorijga chiqib ketish yoki firibgarlarga ishonib, odam savdosi qurboniga aylanib qolayotganlar ham talaygina. Bu esa ularning begona yurtlarda ijtimoiy-iqtisodiy, jismoniy tomondan og‘ir ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Vaholanki, mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash, daromadli ishga jalb etish hamda kambag‘allikni qisqartirish borasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2025-yil ushbu yo‘nalishda alohida ahamiyatga sazovor yil bo‘lmoqda. Bu haqda davlatimiz rahbari yil avvalida bo‘lib o‘tgan videoselektorlardan birida: **“Bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatan aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bo‘lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so‘rov ham qattiq bo‘ladi”** deya ta’kidlagan edi.

Rostdan ham, bu yil aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, yurtdoshlarimizni kasbiy ta’limga yo‘natirish borasida yangicha tashabbus va samarali loyihalar hisobiga katta natijalarga erishilmoqda. Jumladan, hududlarda mahalla bankirlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, banklar mahallalarga bog‘landi. Shu tariqa aholi bandligini ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shyapti. Natijalar raqamlarda aksini topmoqda. Xususan, birinchi yarim yillikda 3 milliondan ziyod kishi daromadli mehnatga jalb qilindi. Kambag‘allikni qisqartirish borasida yaratilgan tizim hamda sarflanayotgan mablag‘ samara berib, joriy yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 6,8 foizni tashkil qildi.

Kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlashda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi muhim o‘rin tutmoqda.

Ayniqsa, aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimi butunlay yangicha ko‘rinish kasb etgan. Hozir biror biznesni yo‘lga qo‘yish uchun mahallangizdan nariga chiqishingiz shart emas. Boisi, yurtimizda aholini kambag‘allikdan chiqarish, ularning bandligini ta’minlash bo‘yicha shunday tizim yo‘lga qo‘yilgan: tadbirkorlik qilishni istaysizmi, dehqonchilik qo‘lingizdan keladimi yoki bo‘lmasa xizmat ko‘rsatish sohasiga qiziqishingiz bormi — istalgan yo‘nalishda ish boshlashingiz uchun “mahalla yetiligi” joningizga ora kiradi.

Xususan, bandlik, aholini tadbirkorlikka jalb qilish masalalarida mahalladagi hokim yordamchisi, soliq xodimi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim xalqimiz vakillariga zarur yordam ko‘rsatmoqda. Qaysi sohada ish boshlashni niyat qilmang, birinchi o‘rinda, moddiy mablag‘, boshlang‘ich investitsiya masalasi o‘rtaga chiqadi. Bu muammolarni ham bir zunda mahallangizning o‘zidayoq hal qilishingiz mumkin.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan “Biznesga birinchi qadam”, “Bir kontur — bir mahalla”, “Bir mahalla — bir mahsulot”, “Har bir yoshga — bir gektar”, “Har bir oila — tadbirkor” kabi loyihalar ko‘pchilikning o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun zamin yaratdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlaridan tortib, biznesini yo‘lga qo‘yishni maqsad qilganlarga — tadbirkorlik loyihasi va o‘ziga ishonchi bor barchaga taqdim etilayotgan imkoniyatlar haqida eshitib, ko‘plab o‘z biznesini boshlash orzusida bo‘lgan, ammo ayrim sabablarga ko‘ra chet elga ishlashga ketgan yurtdoshlarimiz ham o‘z vatani, ota-onasi, oilasi bag‘riga qaytib kelgani ham ayni haqiqat.

Yanada e’tiborlisi, O‘zbekistonga qaytib kelgan fuqarolar orasida keng imkoniyat va imtiyozlardan foydalanib, o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan, bugun nafaqat o‘zi, balki yana bir necha kishini kambag‘allikdan chiqarganlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Imtiyozli kredit ajratish, joy, yer bilan ta’minlash ishlari raqamlashtirilayotgani esa bu tizimga aholining ishonchini yanada o‘rtiradi hamda tezkorlik va shaffollikni ta’minlaydi.

Joriy yil 20-avgust kuni Yangi Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotida bu borada kelgusi yilda katta o‘zgarishlar bo‘lishi ta’kidlandi. Jumladan, 2026-yilda “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili asosida biznesni boshlash hamda yuritish ishlarini onlayn bajarish mumkin bo‘lgan, ishbilarmonlarga zarur davlat xizmatlarini o‘zida jamlagan yangi platforma ishga tushirilishi qayd etildi. Bu keyingi yillarda ishbilarmonlar safi karrasiga o‘rtishiga zamin yaratadi.

Ammo bu faqat O‘zbekistonda yashaydigan fuqarolar davlatimiz yaratib berayotgan turli imtiyozlardan keng foydalanaypti degani emas. Yuqorida ta’kidlanganidek, qayerda, qay ahvolda bo‘lmasin, O‘zbekiston fuqarolari davlat va jamiyatning qo‘llovini ham ma’nan, ham moddiy jihatdan his qilib turibdi.

Birgina misol, uy-joyga ehtiyoji bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan oilalarga beriladigan subsidiya-lar oila a’zolarining arizasiga ko‘ra mehnat muhojirlariga ham berilishi so‘zimizni isbotlaydi.

Xalqimizda “o‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtindagi gado bo‘l” degan naql bor. Tarixda yirik saltanat tuzgan bobomiz Zahiriddin Muhammad Boburning tug‘ilib o‘sgan yurti — Andijondan keltirilgan handalakning bo‘yini tuyganda ko‘ziga yosh olgani naqlning naqadar to‘g‘ri ekanini bildiradi. Bobur “O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim, yo Rab, netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi”, deya tatadan ayro yashashning dardu hasratlarini umr bo‘yi bejiz g‘azal va ruboiylarga bayon etmagan.

Demak, o‘zga yurtda tovog‘ingiz tildan bo‘lsa ham baxtingiz to‘kis bo‘lmas ekan, begona ellarda og‘ir ahvolga tushib qolsangiz, qanchalik og‘ir bo‘lishini tasavvur qilavering. Buni his qilish uchun aksiya doirasida O‘zbekistonga olib kelingan yurtdoshlarimizning yuz-ko‘zidagi quvonch-ni ko‘rish, tilidagi shukronalikni tinglash lozim.

O‘zbekiston xalqaro maydonlarda bayro-g‘imizni hilpiratayotgan sportchilarimiz, ilm ahli, san’at namoyandalarimizdan qanchalik faxr tuysa, ularni rag‘batlantirsa, o‘zga ellarga ketib, og‘ir ahvolga tushib qolganlar, urush o‘chog‘i va muammoli hududlarga borib qolganlarni ham yolg‘izlatib qo‘ymaydi, yelkasidan suyak hayotini izga tushirib olishiga ko‘maklashadi.

Binobarin, “Vatanga qaytarish” insonparvarlik loyihasi hamda o‘tgan yillarda o‘tkazilgan “Mehr” operatsiyalari bunga yorqin misoldir. Axir chin ota farzandlarini bir-biridan ayirmaydi, qo‘lidan kelgancha g‘amxo‘rlik qiladi. Zero, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida bugun mamlakatimizdagi ortga qaytmas islohotlar markazida ham xalq manfaatlarini, hayotdan rozi bo‘lib, farovon turmush kechirishiga erishish maqsadi turibdi.

Avvallari yomg‘ir yog‘ishini osmonga qarab bilardik, qachon ekish va qachon sug‘orish kerakligini esa tajriba aytardi. Biroq bugungi ob-havoni, yerning holatini, suv zaxiralarini taxmin bilan emas, texnologiya bilan aniqlash davri boshlandi. Chunki hozirgi qishloq xo‘jaligi avvalgidek faqat tajribaga tayanib bo‘lmaydigan darajada murakkablashgan, tahlilka va noaniq bo‘lib qoldi.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi natijasida yurtimizning turli hududlarida qurg‘oqchilik holatlari yanada ko‘p uchrayapti. Har yili yoz kelishi bilan suv tanqisligi kuchaymoqda, turli mintaqalarda yerlar samaradorligini yo‘qotmoqda, ayrim dehqonlar ekishning o‘ziga shubha bilan qaraydigan bo‘lib qoldi. Shu bois, bugungi qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish nafaqat zamonaviylik belgisi, balki zaruratga aylangan. Chunki bu jarayon sohaga ilmiy yondashuvni olib kiradi, resurslardan tejimli foydalanishni ta‘minlaydi va eng muhimi, barqarorlikni kafolatlaydi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 12-avgustda imzolangan “Qishloq xo‘jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sohada chuqur ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tarixiy hujjatlardan biri bo‘ldi.

Farmonda ko‘zda tutilgan eng asosiy maqsad — 4 million gektardan ortiq yer maydonlarida ekish va sug‘orish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirishdir. Bu juda katta hajmdagi yer resurslarining elektron monitoringini yo‘lga qo‘yish degani. Shu orqali har bir yerning real holatini, u yerdan qancha hosil olinayotganini, qanday ekin ekilayotganini aniq ko‘rish, tahlil qilish va boshqarish mumkin bo‘ladi. Oldin bu kabi ma‘lumotlar asosan qog‘ozda, ba‘zida esa og‘zaki tarzda yuritilgan, bu esa noto‘g‘ri ma‘lumotlar shakllanishiga olib kelgan. Endi esa texnologiya vositasida, masalan, dronlar, sensorlar, sun‘iy yo‘ldoshlar yordamida aniq va ishonchli ma‘lumotlar olinadi.

Joriy etilayotgan yana bir muhim yangilik — sohadagi 30 dan ortiq axborot tizimlarini yagona integratsion platforma — Agroportal orqali birlashtirishdir. Bu jarayon sohada ma‘lumotlar markazlashuvini ta‘minlaydi. Oldin turli tizimlar o‘zaro aloqasiz ishlagani sababli ma‘lumotlar



parokanda, ziddiyatli va ba‘zan takroran yuritilardi. Yagona platforma orqali esa ma‘lumotlarning yagona, aniq va ishonchli manbasini yaratiladi. Foydalanuvchilar, ya‘ni fermerlar, dehqonlar, tadbirkorlar uchun bu juda katta yengillik, chunki endilikda ular barcha xizmat va ma‘lumotlarga bir joydan kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hujjatga ko‘ra, 2026-yil hosil mavsumidan boshlab barcha qishloq xo‘jaligi tashkilotlari o‘zlariga tegishli yer uchastkalarda ekiladigan ekinlar haqidagi ma‘lumotlarni agroportalgacha mustaqil ravishda joylashtirib boradi. Bu tizim qishloq xo‘jaligidagi rejalashtirish, nazorat va tahlil imkoniyatlarini kuchaytiradi. Endi fermer ekin ekadi, lekin bu haqda hech qanday rasmiy ma‘lumot bo‘lmaydi degan holatning oldi olinadi. Har bir ekin, har bir yer elektron xarita va bazada qayd etiladi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida dronlar, robototexnika va boshqa zamonaviy qujimalardan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilishi muhim o‘zgarishdir. Agroportal orqali dron xizmatlaridan foydalanish uchun fermerlar ariza topshirishi, shartnomalarni rasmiylashtirishi va to‘lovlarini amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Mazkur onlayn xizmatlar fermerlarga vaqt va mablag‘ni tejash, jarayonlarni tekzor tashkil etish imkonini beradi. Dronlar yordamida 30 metr balandlikdacha bo‘lgan uchish hududlari vakolatli idoralar bilan kelishilgan holda ruxsatnomalar asosida nazorat qilinadi. Bu nafaqat xavfsizlikni ta‘minlaydi, balki har bir operatsiyani rasmiylashtirilgan tarzda amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Farmonda nazarda tutilgan yana bir muhim qadam — agroportal orqali yangi xizmatlarni joriy etishdir. Jumladan, 2025-yil 1-dekabrden boshlab yerlarni ikkilamchi ijaraiga berish, ijara shartnomalarini tuzish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish imkonini yaratiladi. 2026-yil 1-martdan boshlab esa qishloq xo‘jaligi yerlari toifasini o‘zgartirish bo‘yicha arizalarni yuborish, ularning holatini onlayn kuzatish va natijalarni olish mumkin bo‘ladi. Bu yechimlar korrupsiyaga qarshi samarali choralaridan biri bo‘lib, barcha jarayonlar shaffof va elektron kuzatuvda bo‘ladi.

Ilmiy asoslangan raqamlashtirish texnologiyalari yordamida qishloq xo‘jaligi jarayonlarining har bir bosqichi — yer tayyorlash, ekish, sug‘orish, monitoring qilish va hosilni yig‘ish aniq va optimal tarzda boshqariladi. Bu esa tabiiy resurslarning oqilona taqsimlanishiga, ortiqcha iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“YASHIL IQTISODIYOT”GA BILIMGA TAYANILGANDA OSONROQ ERISHILADI

Boshlanishi 1-betda

Karmana va Nurobod tumanlarida ishga tushirilgan va har birining quvvati 100 megavatt quyosh fotoelektr stansiyalari energetika tizimida nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi ulkan qadam bo‘ldi. Shu harakatlar sabab elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalarning ulushi 30 foizga yetdi. E‘tirofli, hozirgi vaqtda yurtimizda umumiy quvvati 4119 megavatt bo‘lgan 11 ta quyosh fotoelektr stansiyasi va 4 ta shamol elektr stansiyasi barqaror ravishda “yashil” energiya ishlab chiqarmoqda. 2025-yilda yana 3,5 gigavatt quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalari va 1,8 gigavattlik energiya saqlash tizimlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Shu yo‘nalishdagi uzluksiz harakatlar natijasida 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalarning ulushi 54 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Ana shu ishlar orqali “yashil” islohotlar nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirib, mamlakatimizning barqaror kelajagini belgilamoqda, balki har bir xonadonda yangi turmush madaniyatini yaratib, hayot tarzini o‘zgartirmoqda.

Avvallari yetarli tajriba bo‘lmagani bois, quyosh panellari o‘rnatishga ko‘pchilik “qo‘l urishga” shoshilmas, odamlarda ikkilanishlar bor edi. Bugun yashash tamoyillari uchun eng zarur va barqaror energiya resursi manbasi bo‘lgan bu qurilmaning ahamiyatini ko‘pchilik tushunib yetdi. Shuningdek, tashabbuskorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar sabab qator subyektlarning xashxsiy sa‘y-harakatlari bilan amaliyotga keng joriy etilmoqda. Jumladan, 2025-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, respublikamiz bo‘yicha jami 129 ming 826 ta obyektida umumiy quvvati 1650 megavatt bo‘lgan kichik quvvatli quyosh panellari o‘rnatilgan. Bu zamonaviy amaliyot orqali joriy yilning yetti oyida 875 million kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, 265 million metr kub tabiiy gaz tejaldi, eng muhim jihati, 294 ming tonna zararli chiqindilarning havoiga chiqishi oldi olinadi.

Shu tarzda joriy etilayotgan kichik quvvatli quyosh energetikasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda, balki mamlakatning “yashil” energetika yo‘nalishida barqaror va ekologik toza kelajagi uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Tayanch nuqtasi

Albatta, “yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, suvni tejash, oziquvat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsionlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kiradi.

— Ushbu masala hozirgi zamonda insoniyat taqdirini hal etuvchi omillardan biriga aylandi. 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tabiiy davomi sifatida baholalanadi, — deydi tajribali o‘rmonchi Subhon Abdusalomov. — Bu qaror, xalqimizning asrlar davomida qon-qoniga singgan bir haqiqatni yana qayta namoyon qildi: inson tabiat bilan uyg‘un yashagandagina hayoti farovon, kelajagi mustahkam bo‘ladi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi esa ana shu yuksak maqsadlarning hayotiy ko‘rinishidir. U xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo‘lgan, ko‘chat ekish, bog‘-rog‘ barpo etish an‘anasini qayta tikladi. Loyiha doirasida har yili 200 milliondan ortiq daraxt va buta ko‘chati yerga qadalmog‘da. Yangi bog‘lar, o‘rmonlar va yashil hududlar barpo etilayotgani esa mamlakatimizdagi ekologik muhitni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilmoqda. Bu sa‘y-harakatlar faqatgina havoni tozalash yoki iqlimni yumshatish bilan cheklanib qolmaydi. U, avvalo, har bir xonadonga sog‘lom, musaffo havo ulashsa, ertangi avlodga abadiy yashillikni meros sifatida qoldiradi.

Haqiqatan ham, “yashil makon”lar yaratish — “yashil” taraqqiyot yo‘lidagi muhim omillardan biridir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yilda boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylandi. Ekologik vaziyatni yaxshilashda noyob yechim sifatida xalqaro hamjamiyat e‘tirofiga sazovor bo‘layotgan ushbu tashabbus natijasida oxirgi to‘rt yilda 872 million tup daraxt va butalar ekildi. Shu bilan birga, Orolbo‘yi



hududida 2 million gektar “yashil qoplama”li hudud barpo etildi va bu ekologik holatni yaxshilashga katta hissa qo‘shdi. Jarayon nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam paydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu ma‘noda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirishga doir muhim vazifalar belgilangan. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasini yanada kengaytirish, har yili 200 million tup daraxt ekish va yashillik darajasini 30 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Shuningdek, mazkur dastur doirasida ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va samarali sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish, jami 1984 ta yashil bog‘lar barpo etish, shu jumladan, 112 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan uch yil davomida o‘z va tutash hududlarida 30 million tup ko‘chadan iborat “yashil belbog‘”lar tashkil etish kabi yirik tashabbuslar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Har yo‘nalishda zamonaviylik zarur

Bugun dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib borayotgan murakkab muammo — chiqindilar muammosi. Tahlillarga ko‘ra, hozirgi kunda chiqindilarning 900 ga yaqin turi qayd etilgan va har yili dunyoda chiqindilar hajmi 3 foiz ko‘paymoqda. Bu esa atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilaridan muhofaza qilish hamda zamonaviy resurslar va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi. Shu bois, mamlakatimizda bu sohaga oxirgi uch yilda barcha manbalardan 2 trilion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirilib, chiqindi muammolarini kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Chiqindi korxonalari 1200 ta yangi zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlandi. Mahallalarda chiqindi maydonchalari barpo etildi, to‘plash va tashib ketish tizimi sezilarli darajada yaxshilandi. Avvallari davlat monopoliyasida bo‘lgan sohada tadbirkorlikka yo‘l ochilib, qulay biznes muhiti yaratildi. Jumladan, sanitar-tozalash hamda chiqindini qayta ishlash korxonalari uchun foyda solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi. Chetdan olib kelinadigan texnika va uskunarlar import



bojidan ozod qilindi. Natijada mamlakatimizda 200 ga yaqin sanitar-tozalash va 290 ta chiqindi qayta ishlash korxonalari faoliyat boshladi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiyotni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda.

Transport inqilobi

Shuningdek, bu harakatlarga hamohang yurtimizda “yashil” avtomobillar tobora ommalashib bormoqda. Ekologik tadqiqotlarga ko‘ra, bir dona avtomobil dvigatelli yiliga 20-30 kishi yil davomida nafas oldigan kislorodni sarflaydi, undan tashqari atmosferaga havosini turli zaharli gaz bilan zararladi. Shularning oldini olish maqsadida elektromobillar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, quvvatlash stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, butlovchi qismlarni mahalliyashtirish ishlari keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Haqiqatan ham elektromobillarning yurish xarajati oddiy avtomobilga nisbatan 10 baravar, tabiatga zarari esa 3 baravar kam. Shu bois, hozirda O‘zbekistonda elektromobillar soni keskin ortib bormoqda. Statistikaga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra mamlakatimizda 73,6 ming dona elektromobil ro‘yxatga olingan. Bu — ekologik toza va iqtisodiy jihatdan foydali avtomobil vositalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat.

Suv tejamkorligi

“Yashil” taraqqiyotda suvdan samarali foydalanish va tabiiy resurslarni oqilona boshqarish muhim o‘rin egallaydi. Xususan, yomg‘ir va zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy etilmog‘da, suv resurslarini boshqarish raqamlashtirilmoqda, sug‘orish kanallari esa suv yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida modernizatsiya qilinayapti. Bu ishlar aholi hayoti va qishloq xo‘jaligi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 4,3 million gektar sug‘oriladigan yer mavjud bo‘lib, ularning qariyb 40 foizi oxirgi yillarda suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan qamrab olindi. Bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish maqsadida joriy yilning 15-avgustida Prezidentimiz tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur dastur doirasida suvdan samarali foydalanish va suv yo‘qotilishini keskin kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2551 kilometr irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar hajmini 2,1 million gektardan 3,5 million gektarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, tomchilatib sug‘orish tizimi qamrovi 560 ming gektardan 853 ming gektarga kengaytiriladi.

Mutaxassislar ta’kidlashicha, ushbu chora-tadbirlar nafaqat suv sarfini kamaytiradi, balki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini ham sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bunday sa‘y-harakatlar nafaqat qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshiradi, balki butun mamlakat taraqqiyotining barqaror yo‘nalishini belgilaydi. Chunki suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali atrof-muhit muhofazasi va kelajak avlod uchun sog‘lom muhit yaratiladi. Shu bois, ushbu islohotlar — mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, iqtisodiy yuksalishi va eng muhimi, “yashil” taraqqiyotini ta‘minlashda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

— Mamlakatimizda suv tanqisligi muammosini yumshatish maqsadida qilinayotgan ishlar ko‘lami tobora kengayib bormoqda, — deydi irrigator Asqar Xudoyqulov. — Bunda eng muhim jihat — “suv tekin” degan qarashdan voz kechib, amalga oshirilayotgan zamonaviy loyihalar va suv tejovchi texnologiyalar suv tanqisligini yumshatish hamda qishloq xo‘jaligidagi “yashil” taraqqiyot paydevorini mustahkamlashga xizmat qilaypti. Maqsad bitta: tejamkor sug‘orish orqali suvdan oqilona foydalanishni ta‘minlash va agrar sohada barqaror rivojlanishga erishish. Bu islohotlar qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish barobarida ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘rinish uyg‘unligini ham ta‘minlaydi. Shu tariqa amalga oshirilayotgan har bir loyiha mamlakatimizdagi

“yashil” islohotlarning amaliy ifodasi, barqaror kelajakning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, “yashil” taraqqiyot haqida so‘z yuritarkanmiz, bu jarayonni faqatgina yirik dasturlar, “yo‘l xarita”lari yoki texnik islohotlar bilan rivojlantirib bo‘lmaydi. Texnologiyalar va amaliy ishlar qay darajada samarali bo‘lmasin, ularning haqiqiy qiymati faqat bilim bilan hamohang bo‘lgandagina namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham “yashil bilim” barqaror taraqqiyotning ma‘naviy asosi, uning intellektual va ma‘rifiy drayveri hisoblanadi. Chunki har qanday texnologiya yoki islohot amaliyotida insonning ekologik tafakkuri, tabiatga ongli munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega. U odamlarda tabiatga munosabattini o‘zgartiradi, yangi odatlarni shakllantiradi va kundalik hayotda amaliy ifoda topadi. “Yashil bilim” qay darajada keng tarqalsa, “yashil” taraqqiyot ham shunchalik bardavom va mustahkam bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari, suv va elektrdan tejamkor foydalanish kabi ilg‘or yo‘nalishlar faqat ma‘rifatli avlod qo‘lida samarali ishlaydi. Shu bois, “yashil” taraqqiyot g‘oyasi oildan, bog‘chadan, maktabdan, mahalladan boshlanmog‘i shart. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalari, media platformalarining ham o‘rni beqiyos. Chunki aynan media — yoshlarda tabiatni asrab-avaylash, chiqindilarni boshqarish, suv va energiyani tejash madaniyatini shakllantirishda kuchli vosita hisoblanadi.

“Yashil iqtisodiyot” nazariya yoki shior emas, balki hayotiy ehtiyoj. Shu bugunog‘ amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan kichik amallar algoritmi. Eng muhimi, shu kichik qadamlarimiz ertaga katta natijalarga aylanadi. Ana shunda “yashil” taraqqiyot orzu yoki shior emas, real hayotiy haqiqatga aylanadi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist



Nega o'tgan yilgi abituriyentlarning sonini keltiraymiz? Chunki yuqorida aytganimizdek, qatnash qatimotining ilk qatnashchilari mana shu talabalar. 1-bosqich yukunida qatnash qatimotining uchun avgustning 10 sanasiga qadar kontrakt. Edu.uz saytida ariza topshirgan. Qonunchilikka ko'ra, Respublika oliy ta'lim kengashi qaroriga asosan ta'lim grantini oluvchi talabalar ro'yxati har yili 25-avgustga qadar oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Yuqorida aytganimizdek, birinchi qatnashchilari anglashilmovchilikni, muhokamalar natijalar ko'zilib ketishiga sabab bo'ldi. Bu muhokama aytarli qiyinchiliklarga qadar kelmagani uchun talabalar tajribasi esa boshqalarga ham

TALABALAR O'RTASIDA TENGLIKNI TA'MINLAYDI

— Bunda yoshligimdan ilmga undagan otamam va ta'lim-tarbiya bergan ustozlarimning mehnati beqiyos. Shuning uchun ushbu grant, avvalo, ular uchun eng katta va kutilmagan sovg'a bo'ldi. Chunki qishloq sharoitida 10 million kontrakt to'lovini to'lash ham oson emas edi. Shuning uchun adolatli qabul qilingan

Talaba qizning “Uydagilar juda xursand bo‘lishdi, chunki byudjetda o‘qishim mumkinligi ularning xayoliga ham kelmagan. To‘g‘risi, o‘zim ham grant taqsimoti haqidagi

Andijonlik Saida Jo'rayeva ham shu kabi ota-onalarga havasmandlardan. U ayni paytda turmush o'rtog'i bilan uch qizini uydan olisda o'qityapti. Kontrakt to'lovidan

Ha, birinchi yil grant taqsimotidan bexabar bo'lgan yoki uning mohiyatini yaxshi anglab yetmagun talaba yoshlar endi belni mahkamdan bog'lashi aniq. Ba'zan darslardan qolib, ba'zari kechasi bilan ishlab yordagilarga yordam bergandan ko'ra, a'lo o'qib, ijtimoiy faollik namoyon etib, shartnomga pulidan qutulgan yaxshi-da, albatta. Hatto to'liq bo'lmagan grant ham ota-onasiga katta yordam bo'lishini ular

22 mingga yaqin talabasi bo'lgan Qoraqalpog'davlat universitetida 2161 talaba grantni qayta taqsimlashda qatnashish uchun arbaba bergan. Grantlarni qayta taqsimlashda mas'ul xodimlardan biri Ilhom Boymurodovga ko'ra, ularning 400 dan ziyodi magistr. 592 talaba to'liq grantni, 479 nafari to'liq bo'lmagan grantni, 46 nafari ko'shimcha davlat grantini, 81 nafari OTM grantini qo'lga kiritdi. 319 talaba esa grantdan kontraktga o'tkazildi. Apellyatsiya borgan 30 ga yaqin talabaning e'tirozi qaroring mazmun-mohiyatini tushunmaganlikdan kelib chiqqani ayon bo'lib, asosiz deb topildi. Bahosi o'zgargan talabalarning arzasi esa ijtiboh kali bo'ldi.



Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi tubdan o'zgardi. Bunday yangilanishlarning muhim jihati u yurtimizning barcha mahallasiga, xonadonlarga kirib bordi. Bugun ushbu tizimdan odamlar rozi bo'layotgani siri ham shunda. Ilgari odamlar dardini kinga aytishni bilmas, muammolar esa yig'ilib, kattalashib boraverardi.

Ijtimoiy himoya



Ijtimoiy nimoya milliy agentligi tashkil etilgach, soha tubdan yaxshilandi. Endi mahallalaridagi ijtimoiy xodim umuma-y yurib, kimga qanday ko'mak kerakligini aniqlab, tizim ro'yxatiga kiritmooqda. Shu orqali ijtimoiy ko'makka muhtoj yurtdoshlarimizga manzilli yordam berilypati. Xususan, Mang'it shahridan Navoiy mahallasida yashovchi Asiya Matchonova va Odil Saidov yakka-yolg'iz yashaydi. Ularga "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi assistenti Roza Qurbonoviyozova belgilangan javdal asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari, Xorazm ko'chasi 4 yashaydigan Ochilboy Xolboyevning pasport to'loviga yordam beriladi. Bundan tashqari, tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, unga 1 guruh

Navoii mahallasida o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashovchi 6 kishi bor. Shuningdek, nogironligi bo'lgan 157 shaxs xatdovdan o'tkazilgan. Toifasidan kelib chiqib, individual yondashuv asosida ularning ehtiyojini aniqlangan. O'tgan davrda ushbu fuqarolarga tonometr, yurish moslamasi, oddiy va tirskali qo'ltiqayoq, ko'zi oqizlar hassasi, korset matodan tayyorlangan mahsulotlar yetkazib berilgan. Shuningdek, nogironligi bor 3

to'garaklarga ham kambag'al oilalar farzandlari jalb qilinib, muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoit yaratilmoqda. Ayun shunday oilalar farzandlaridan dam olari To'rtko'l va Eliklq'al'da tumanidagi 15 nafar oromgohlariga yuborildi.

Ota-onasi xoriga ketgan, shuningdek, tashqi mehnat muhojirligidagi voyaga yetmagan bolalarga ham alohida e'tibor berilyapti.

Xususan, hududdagi umumta'lim maktablari mas'ullari bilan hamkorlikda bu borada



Yangi O'zbekistonda ijtimoiy xizmatning yangicha shakli va mazmunda tashkiliy etilish odamlarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Chunki yangi tizim sabab ijtimoiy himoya mahalla darajasiga tushirildi. Endi ijtimoiy xizmatlar sifati tobora oshib bormoqda. Bu ko'plab oilalarga nur, farovonlik va xotirjamlik olib kirdi. Katta umid bilan mahalla ostonasiga qadam qo'yganlarning og'iri yengil, mushukli oson bo'lmoqda. Shu orqali ular hayotdan rozi bo'lib, zavq bilan yashamoqda. Kelajakka ishonch mustahkamlanib boryapti. Zero, ishonch tuyg'usi jamiki ezuu ishlarga qanotdir.

Minajatdin QUTLIMURATOV
“Yangi O‘zbekiston” muxbir



Mulohaza



MAQSADI OYDIN AVLOD

YETUK JAMIYAT BUNYODKORLARIGA KENG MAYDON



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zini oqlayotgan talab

Aksariyatimiz ish va yumushlar girdobidan qochib, oqshom uyimizga kelgach, o‘tgan kunimizni o‘zimizcha sarhisob qilamiz. “Vaqt tez va barakasiz o‘tdi, mo‘ljaldagi ko‘p ishga ulgura olmadim”, deb ichimizda noliq qo‘yamiz. Soatning chiqillashi shunchaki ovoz emas, u umr daraxtiga urilayotgan boltadir degan purma‘no iqtibosni o‘qiganim bor. Biz ko‘pincha fursatning qadriga yetmaymiz, nazarimizga ilmaymiz, uni yo‘qotsak, achinmaymiz. Soatdagi soniya millarining bir-bir siljib qo‘yishiga e‘tiborsiz munosabatda bo‘lamiz. Qancha yashashidan qat‘i nazar, inson umri ana shu fursatlar yig‘indisi ekani haqida o‘ylab ham ko‘lmaymiz.

Bizda uchraydigan beg‘amlik, boqimandalik, quntsizlik, vaqtni to‘g‘ri taqsimlamaslik va maqsadsiz amallar bilan mashg‘ul bo‘lish kabi illatlarning ildizi qayerdan suv ichiyapti? Aslida, turmush, oila farovonligi, demakki, jamiyat taraqqiyotini ortga tortish kuchiga ega bu holatlar qanchaligi emas, mavjud ekanining o‘zi yurtimizdagi ziyoli qatlamni bezovta qilishi kerak.

Mamlakatimizdagi tafakkuri butun, zukko, maqsadi aniq yoshlarga dunyodagi millionlab tengdoshlari havas qilsa arziydi. Navqiron avlod vakillari uchun yaratilgan va yaratilayotgan shart-sharoit hamda imkoniyatlar bunga izn berishi shubhasiz. Bu boradagi davlat siyosati milliy taraqqiyotning muhim ustunlaridan biriga aylangan. Bugun yurtimizda kechayotgan islohotlar, joriy etilayotgan dasturlar va qabul qilinayotgan qonun hujjatlari asosida yoshlar hayotining barcha jabhasida baralla bo‘y ko‘rsatayotgan keng qamrovli o‘zgarishlarga jahon hamjamiyati guvoh bo‘lib turibdi.

— Ushbu imkoniyat va sharoitlardan to‘laqonli foydalanish yoshlarimizning inon-ixtiyoridaagi vazifa, — deydi professor, filologiya fanlari doktori Muslihiddin Muhiddinov. — Uzoq yillik faoliyatim davomida amin bo‘ldimki, tafakkuri va shuurida inqilobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan yigit-qizlarga yetuk va komil inson



sifatida kelajak sari dadil qadam bosadi. Hamma sharoit davlat tomonidan muhayyo qilinsa-yu, yoshlarning o‘y-xayoli boshqa narsalar bilan band bo‘lsa, sa‘y-harakatlar samara bermaydi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari ma‘naviyatga, unib-o‘shib kelayotgan avlodni ma‘naviy komillikka yetaklash lozimligiga doim e‘tibor qaratib, biz kabi nuroniy va katta hayot tajribasiga ega yurtdoshlarimizdan yoshlar tarbiyasiga befarq bo‘lmaslikni, keng jamoatchilik yordamida ularni to‘g‘ri o‘zanga solish uchun amaliy ishlarni kutyapti, kerak bo‘lsa, talab ham qilyapti.

Egizak yo‘nalish

Baxt — biz ega bo‘lmagan narsaga erishishimiz emas, balki ega bo‘lgan narsamizning qiymatini bilishimizdir. Bugun yoshlar nimalarga ega? Albatta, avvalo, imkoniyat va sharoitga. O‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, unga erishish uchun izlangan, tirishgan, o‘z ustida ishlagan yigit-qiz, albatta, mureddiga yetadi.

Davlatimiz rahbarining bir gapi bor: “Farzandlari bilimli, iste’dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug‘ bo‘ladi. Biz O‘zbekiston yoshlarini ana shunday ezigu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”. Demak, xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlar ijobatini, yangi O‘zbekiston kelajagini azmu shijoatli farzandlarimiz bilan bog‘liq holda ko‘radi. Shu bois, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularni barkamol etib ulg‘aytirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Shu mavzuda so‘z yuritganda so‘nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshashi kam bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta‘kidlash lozim. Bu esa mahallalarda ko‘plab yigit-qizlarni kash-hunarga o‘qitish, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq masalalarni quyi bo‘g‘inning o‘zida hal etish imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda yoshlar bandligini ta‘minlash, jinoyatga moyilligi bor yigit-qizlarga manzilli yordam ko‘rsatish, ta‘lim muassasalari va mahalla tizimi hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha aniq “yo‘l xarita” tuzilgan.

— 2025-yil yakuniga qadar 451 ming maktab bitiruvchisini ish bilan ta‘minlash



vazifasi belgilangan, — deydi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev. — Shu maqsadda oktyabrda maxsus bandlik dasturi tasdiqlandi. Unda har bir hudud kesimida maktab bitiruvchilari hisob-kitobi yuritiladi. Hududiy hokimliklar, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi bu jarayonda asosiy ijrochi bo‘ladi. Dekabrga qadar ularning bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yakuniy hisobot beriladi. Bu bilan maktab bitiruvchilari kelgusi yilni ish yoki ta‘limsiz boshlamasligi kafolatlanadi.

Bandlik masalasi alohida vazirlik yoki tashkilot zimmasidagi vazifa emas, barcha idoralar hamkorligidagi jarayondir. Maqsad — har bir bitiruvchining aniq yo‘nalishi bo‘lishini ta‘minlash. Shu orqali ish o‘rinlari ochiladi, yoshlar o‘z qiziqishi va qobiliyatiga mos faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ham ta‘lim, ham malaka

Yoshlar uchun bilim olish imkoniyati tobora kengaymoqda. Maktab va kollejlarda zamonaviy ta‘lim usullari joriy etilmoqda, oliy ta‘lim muassasalari soni va sifati oshib bormoqda. Chet elda ta‘lim olish uchun stipendiya dasturlari, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik shartnomalari yoshlarga jahon miqyosida bilim olish imkonini bermoqda.

Prezidentimiz ishtirokida yaqinda ta‘lim tizimi faollari bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda bir yilda 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi, ularning eng ilg‘or kasbiy ta‘lim dasturlari joriy qilinishi belgilandi.

Kasbiy ko‘nikmasi bor istalgan talabgor ushbu texnikumlarda xorijiy davlatlarning malakani baholash tizimi orqali imtihondan o‘tib, xalqaro sertifikat olishi mumkin. Joriy o‘quv yilidan Buyuk Britaniyaning “Pirson” kompaniyasi bilan hududlardagi 14 ta texnikumda “BITEK” xalqaro dasturi boshlandi. Bu orqali yoshlar xalqaro standartlar asosida sayyohlik, axborot texnologiyalari, tibbiyot, qurilish, logistika, elektrotexnika, energetika, mashinasozlik, biotexnologiya, kreativ iqtisodiyot kabi yo‘nalishlarda talab yuqori kasblarni egallaydi.

Kelasi yili sanoatda qariyb 45 milliard dollarlik 456 ta yirik loyiha boshlanadi.

“Investor — tarmoq — texnikum” janjiri asosida texnikumlarda dual ta‘lim yo‘lga qo‘yiladi. Korxonalar bilan aniq loyihalari bo‘lgan texnikumlar o‘rtasida zamonaviy ustaxonalar barpo qilish bo‘yicha tanlov o‘tkaziladi. Tanlov g‘oliblariga ustaxona uchun zamonaviy uskuna va jihozlar, sport anjomlari olib beriladi.

Bugun mamlakatimiz bo‘ylab yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan turli grantlar, imtiyozli kreditlar va biznesni boshlashga mo‘ljallangan o‘quv dasturlari amalga oshirilmoqda. Yosh tadbirkorlar uchun maxsus texnoparklar, inkubatorlar va kovorking markazlari tashkil etilmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida iqtidorli yoshlar uchun AT parklari, dasturlash bo‘yicha maxsus akademiyalar, onlayn kurslar va xalqaro tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati yaratilyapti.

Bular haqida turli doiralarda, yig‘ilish va muloqotlar chog‘ida takror va takror to‘xtalib o‘tilayotgani bejiz emas. Yoshlar — har qanday jamiyatning kelajagi. Ularga yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun mamlakat taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, bu imkoniyatlardan unumli hamda maqsadli foydalanish har bir yoshning burchi va mas‘uliyatidir.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar nafaqat mamlakat kelajagi, balki bugungi rivojlanishning faol ishtirokchilariga aylanmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar, loyiha va dasturlar yoshlar uchun keng imkoniyatlar eishigini ochmoqda. Maqsad — har bir yosh o‘z imkoniyatini topa olsin, izlansin, faollik va namuna ko‘rsatsin, sharoitlardan unumli foydalansin!

Farovonlikni ta‘minlashda yetakchi kuch

Davlatimiz rahbarining hududlarga har bir tashrifi taraqqiyotning yangi yo‘nalishlarini belgilab beradi. Zero, tashrif doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, birinchi navbatda, odamlarning yaxshi yashashi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilmoqda.

Prezidentimiz yaqinda Namangan viloyatiga tashrifida ham sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika, ijtimoiy soha kabi qator yo‘nalishlarda ishga tushiriladigan yangi obyektlar bilan tanishdi, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi. Ushbu uchrashuv va muloqotlarda ham yoshlar masalasi alohida e‘tibor markazida bo‘ldi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari 17-18-sentabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumida nutq so‘zlab, bugun dunyo miqyosida kechayotgan murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurash davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, umummilliy harakatga aylangani, bu jarayonda barcha islohot “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgani katta samaralar berayotganini qayd etdi.

Dunyo hamjamiyati guvoh: mamlakatimizda fuqarolarning haq-huquqini himoya qilish, ularni munosib ish joyi bilan ta‘minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan salmoqli ishlar qilinayapti. Har bir inson, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun sharoit yaratish



va imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilyotir.

Global hamjamiyat 2030-yilgacha dunyoda kambag‘allikka barham berish, atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, tinchlik va farovonlikni ta‘minlashga xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi jihatlarini mujassamlashtirgan Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qilgan. Uzoqni ko‘zlagan va inson manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yilgan izchil islohotlar natijasida O‘zbekistonda hozir Barqaror rivojlanish maqsadlarining qariyb yarmiga erishilib, 70 foizida ijobiy natija qayd etildi.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab sharoit tufayli hozir global miqyosda ushbu maqsadlarning atigi 18 foiziga erishilgan. Shunday murakkab vaziyatda yurtimizda bu borada qo‘lga kiritilayotgan o‘ziga xos natijalar yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. Ha,

kambag‘allikni qisqartirish — keng qamrovli jarayon. Bu yo‘nalishda ish yuritish va biror natijaga erishish uchun har bir davlat ko‘plab vazifalarni samarali hal etishi lozim. Mamlakatimizda bu yo‘nalishdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ana shunday muhim jihatlarini o‘zida mujassam etgan.

Dastur doirasida belgilangan chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot hajmi 2 barobardan ortiq, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi esa 1,8 barobar ko‘paydi. Xalqaro moliya va rivojlanish tashkilotlari bilan birgalikda o‘tkazilgan muloqotlar va o‘rganishlar natijasida mamlakatimizda minimal iste‘mol xarajatlari va kambag‘allikni hisoblashning milliy mezonini ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Natijada kambag‘allik darajasi qariyb 3 barobar qisqarib, 2025-yil yakunida 6 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Bunda qishloq hududlarda kambag‘allik darajasi shaharlardagiga nisbatan tez sur‘atda pasayib, 2021-yildagi 19,8 foizdan 2024-yilda 9,2 foizga tushdi. Shaharlarda kambag‘allik darajasi esa ushbu davrda 13,9 foizdan 8,6 foizga qisqargan.

Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirishda aholi bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy drayverlar sifatida belgilandi. Xususan, so‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari soni 2 barobar ortib, 1,2 milliontaga, kichik tadbirkorlik bilan o‘zini o‘zi band qilganlar soni esa 5,5 millionga yetdi. Ishsizlik darajasi 5,5 foiz atrofida saqlanmoqda. Yurtimiz aholisi yiliga o‘rtacha 700-800 mingga darajasi borayotgani fonida inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi.

Maktabgacha va maktab ta‘limi sohasi uchun ajratilgan mablag‘ 7 karra oshirilib, maktablarda 1 millionga yaqin o‘quv o‘rni ochildi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 8 barobar ortib, qamrov darajasi 78 foizga ko‘tarildi. Kambag‘al oilalar farzandlari bog‘cha to‘lovidan to‘liq ozod qilindi.

Oliy ta‘lim qamrovi 9 foizdan 42 foizgacha oshib, oliy ta‘lim muassasalari soni 6 barobar ko‘paydi. Kambag‘al oilalar farzandlari hamda xotin-qizlarning sifati ta‘lim olishi uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida foizsiz ta‘lim kreditlari ajratilmoqda.

Rag‘bat va jazo...

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘zlangan maqsad-muddaoni bir matl vositasida ifodalashga urinib ko‘rsak...

Bir zamonlar qaysidir yurtning oqil hukmdori huzuriga bir kishi kirmoqchi bo‘libdi. Ijzat etilgach, qo‘lida kichik quti ko‘targan o‘rta yoshlardagi erkak hozir bo‘libdi.

— Tashrifingdan muddao ne? — so‘rabdi shoh.

— Sizga bir mo‘jiza ko‘rsatish maqsadim bor. Ruxsat bering, namoyish etayin. Gap shundaki, men 5 yil shug‘ullanib, chumoliga musiqa ohangiga mos muqom qilishni, raqs tushishni o‘rgatdim. — Qani, hunaringni ko‘rsat-chi.

Boyagi kishi qo‘lidagi quti ichidan chumolini olib kursi ustiga qo‘yibdi va qo‘njidan nay chiqarib, kuy chalibdi. Chumoli sho‘x nay navosiga chunonam xiron aylabdi. Hukmdor ham, saroy ahli ham qoyil qolibdi.

— Bu kishiga zarfot to‘n kiydiring, — deb amr etibdi shoh.

Mulozim va ayonlar darhol buyruqni ado etibdi.

— Endi unga 50 darra uringlar, — debdi shoh.

Navbatdagi farmoyishdan barcha lol qolibdi. Shunda siylov izidan jazolash sababini shohning o‘zi bunday izohlabdi:

— Zar choponni mahoratiga va sabring evaziga deb bil. Darra esa 5 yil umringni foydasiz ishga behuda sarf qilganing uchundir. Bu ishingdan na xalqqa, na o‘zingga bir naf ko‘rdim. Agar shu fursat va mahoratini xalq, omma, saltanat manfaatini yo‘lida sarflagan bo‘lsayding, boshingdan tilla sochgan bo‘lardim.

Xo‘sh, quruq chumoli raqsi bizga kerakmi? Albatta, yo‘q! Bizga O‘zbekiston yoshlarining o‘z maqsad-muddao, izlanishlari, sa‘y-harakati, egallagan bilimi, erishgan natijalari, tarbiya va axloqi orqali doim rag‘bat hamda e‘tirofga munosib bo‘lib kelayotgani muhim. Buning aksi — maqsadsizlik va zo‘yef fursat uchun jazo esa ularni aylanib o‘taversin.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.

34751 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 20:40